



2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi
- **33 652,9** mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
- **31,2 %**


Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
- **40,6 %**

Norasmiy sektor
ulushi - **28,2 %**


Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 33 652,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 10 494,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 31,2 %ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,6 %i yoki 13 654,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,2 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 28,2 % yoki 9 504,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etdi.



Yanvar - sentyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,9 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,0 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 29,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 34,9 % (2,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 35,5 %ni (2,7 % punktga kamayish) tashkil etdi.


2018 yil yanvar-sentyabrda faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 49,3 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko`paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 46,0 % (1,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 4,7 %ni (0,1 % punktga ko`payish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga kamaydi va 24,9 %ni tashkil etdi. Qolgan 75,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga ko`paydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 13 654,0 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 40,6 %) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 %ga ko`paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 10 494,6 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 31,2 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 28,2 %i yoki 9 504,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish suratlari




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Navoiy (hududdagi qurilish hajmining 31,9 %ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 marta qurilish ishlari ko'p bajarilgan) va Toshkent (mos ravishda, 26,0 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta qurilish ishlari ko'p bajarilgan) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida kuzatildi – 1,7 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 50,1 %i.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy viloyatida (123,1 %) kuzatildi. Ushbu hududdagi qurilish ishlari hajmining oshishiga “Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga” qarashli “Zarafshon qurilish boshqarmasi”ning 2018 yil uchun manzilli dasturga asosan joriy yilda quyidagi yirik loyihalarning bajarilishi o`z ta’sirini ko’rsatdi:

- “Auminzo-Amantay” konida oltin-ma’danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo’yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);
- “Amudaryo-Zarafshon” suv o’tkazgichining 3-bo’ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;
- “Ko’kpatas” va “Daugiztau” konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish.

Toshkent viloyatidagi (120,6 %) yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- “CHORBOG’GESQURILISH” unitar korxonasi – Bo’stonliq tumanida “Qodiriya” GES, hamda harbiy shaharcha qurilishini amalga oshirgan;

- “ELEMENT-QURILISH” sho’ba korxonasi – Navoiy viloyatida yangi zavod qurilishi bilan shug’ullanmoqda;
- “AVTOMAGISTRAL” unitar korxonasi – Toshkent viloyati hududida avtomobil yo’llarini qayta qurilishini amalga oshirganligi sabab bo’ldi.



Toshkent shahrining yuqori o`shish suratga - 111,0 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg’ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Pskent tumanida GES qurilishi;
- “Angren-Pop” temir yo`l liniyalarida to`siqlar o`rnatish;
- “Milliy bog” dam olish maskanini O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bog`iga rekonstruktsiya qilish kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56